



O‘ZBEKISTON RESPUBLIKASI MADANIYAT VAZIRLIGI

**O‘ZBEKISTON RESPUBLIKASI
OLIY TA‘LIM, FAN VA INNOVATSIYALAR VAZIRLIGI**

**O‘ZBEKISTON DAVLAT
SAN‘AT VA MADANIYAT INSTITUTI**

**“Tasdiqlayman”
O‘zbekiston davlat
san‘at va madaniyat
instituti rektori**



N.B. Sayfullayev
“26” 06 2026-y

**“Kelishildi”
O‘zbekiston Respublikasi
Oliy ta‘lim, fan va
innovatsiyalar vazirligi**



“26” 06 2026-y

**“Kelishildi”
O‘zbekiston Respublikasi
Madaniyat vazirligi**



“26” 06 2026-y

**KASBIY (IJODIY) IMTIHONLAR DASTURI
VA BAHOLASH MEZONI**

**60211100-Aktyorlik san‘ati (dramatik teatr va kino aktyorligi)
ta‘lim yo‘nalishi uchun**

1. Aktyorlik mahorati fanidan
2. Sahna nutqi va raqs fanlaridan

Toshkent – 2026

Dastur O'zbekiston davlat san'at va madaniyat instituti Badiiy, o'quv-uslubiy kengashida ko'rib chiqilgan va ma'qullangan. 2026-yil "15" 05 10-sonli majlis bayoni.

Tuzuvchilar:

- Z.A. Axmedova – O'zDSMI "Dramatik teatr va kino san'ati" kafedrası dotsenti
X.N. Qobilov – O'zDSMI "Dramatik teatr va kino san'ati" kafedrası dotsenti

Taqrizchilar:

- M.R. Yusupova – O'zDSMI "Estrada va ommaviy tomoshalar san'ati" kafedrası professori, san'atshunoslik fanlari nomzodi.
X.X. Sa'diyev – O'zbekiston xalq artisti.

Kirish

60211100-Aktyorlik san'ati (dramatik teatr va kino aktyorligi) bakalavriat ta'lim yo'nalishiga kiruvchi abituriyentlarning kasbiy (ijodiy) imtihonlar, meyoriy-huquqiy hujjatlar asosida shakllantiriladi va kirish imtihonlari unga muvofiq o'tkaziladi.

Ixtisoslik bo'yicha kirish imtihonlar har bir ixtisos uchun ta'kidlangan qabul talablariga muvofiq ravishda o'tkaziladi.

Ixtisoslik bo'yicha imtihon o'tkazilishining ketma-ketligi har bir oliy o'quv yurtning qabul komissiyasi tomonidan o'rnatiladi va har yili qabul qilish qoidalari ko'rsatiladi.

60211100-Aktyorlik san'ati (dramatik teatr va kino aktyorligi) bakalavriat ta'lim yo'nalishiga o'qishga kirayotganlar, ijodiy va tashkiliy ishlarga qobiliyatli hamda yuksak ijodkorlik, ijrochilik, tashkilotchilik, yo'nalishdagi fikrlash qobiliyatiga, asarni tanlash va sahnalashtirishda zaruriy jihatlarni bilish, tushunish, his qilish qobiliyatiga ega bo'lishi kerak.

Fanning maqsadi va vazifalari

60211100-Aktyorlik san'ati (dramatik teatr va kino aktyorligi) bakalavriat ta'lim yo'nalishida kasbiy (ijodiy) imtihonlar abituriyentlarning aktyorlik mahorati layoqatini ijodiy sinovlar orqali fanlaridan ijodiy hamda amaliy ko'nikma va malakalarini aniqlash maqsadida o'tkaziladi.

Fanning vazifasi – abituriyentlarni mazkur soha bo'yicha zamonaviy ta'lim metodlari orqali sinash, rol konsepsiyasini, uning ijro etayotgan materialidan, janr, xarakter, ifodaviy vositalardan foydalanayotganligini aniqlashdan iborat.

Abituriyent bu bosqichda quyidagi dasturlarni tayyorlashi lozim:

- 1) masal (I.V.Krilov, S.Mixalkov, M.Xudoyqulov, A.Obidjon va h.k.);
- 2) monolog (biron bir pesadan qahramon monologi);
- 3) she'r;
- 4) qo'shiq;
- 5) raqs;
- 6) hayvonot olami (Hayvonot xulq-atvori) - kuzatishlar asosida etyud;
- 7) yakka etyud – (Abituriyentning yakka o'zi bilan sahnada sodir bo'layotgan so'zsiz voqea ko'rinish).

Bundan tashqari, abituriyent qiziqqan sohasi yoki janri bo'yicha o'zining tayyorlab kelgan mustaqil nomerini ham namoyish etish mumkin. Masalan:

- 1) plastika;
- 2) pantomima;
- 3) buyumlar jonlanishi – etyud;
- 4) parodiya (taqlid san'ati);
- 5) musiqa san'ati.

Abituriyent bilimiga qo'yiladigan talablar

Aktyorlik mahorati fanidan abituriyent ijodiy qobiliyatga ega bo'lishi, san'at haqida tushunchaga ega bo'lishi kerak. Abituriyentning ijodiy salohiyati va

sahnaviy tarovati (insoniy jozibadorligi, hislati, tabiati, yoshi, tashqi ko‘rinishi, yoqimtoyligi va ichki madaniyati, hayotiy tajribasi, tasavvurining rang-barangligi, ta’sirchanligi, hayotiy voqea va hodisalarga munosabati va ularni sahnada aks ettira olish salohiyati mavjud bo‘lishi kerak. Raqs, plastika fanidan imtihondan o‘tayotgan abituriyent raqs, plastika fani bo‘yicha amaliy sinovdan o‘tkaziladi. Uning raqs, musiqali – ritmik va plastik ma’lumotlarga egaligi tekshiriladi.

Sahna nutqi bo‘yicha abituriyentni sinash davrida sahna nutqi kafedrası pedagoglari tomonidan uning ovozi va nutqini tekshiruvi amaliy tarzda o‘tkaziladi. Sog‘lom ovozning mavjudligi, talaffuzning tozaligi, ravonligi, burroligi, aniqligi (nutq a‘zolaridagi organik va noorganik kamchiliklarning yo‘qligi o‘rganiladi. Sahna nutqi – o‘qishga kirayotgan shaxsni ijodiy maylini aniqlashga, teatr va kino sohasida kelajakda nutqi bo‘yicha bilimlarini to‘g‘ri ishlata olishiga, asosiy ko‘nikmalarga to‘g‘ri yo‘nalish qila olishini aniqlashga imkoniyat yaratadi.

Raqs fanidan imtihondan o‘tayotgan abituriyent raqs, plastika fani bo‘yicha amaliy sinovdan o‘tkaziladi. Uning raqs, musiqali-ritmik va plastik ma’lumotlarga egaligi tekshiriladi.

Kasbiy (ijodiy) imtihonlar quyidagi mezon asosida baholanadi:

Aktyorlik mahorati fani bo‘yicha

№	Talabning mazmuni	Maksimal ball
1.	Abituriyentning ijodiy salohiyati va sahnaviy tarovati (insoniy jozibadorligi, hislati, tabiati, yoshi, tashqi ko‘rinishi, yoqimtoyligi va ichki madaniyati, hayotiy tajribasi, tasavvurining rang-barangligi, ta’sirchanligi, hayotiy voqea va hodisalarga munosabati va ularni sahnada aks ettira olish salohiyati)	8
2.	Abituriyentning sahnaviy tarovati – insoniy jozibadorlik, jalb etuvchi yoqimtoylik, tananing nuqsonlardan holi ekanligi, bo‘yini balandligi	5
3.	Dunyoqarashi (ijtimoiy, madaniy, sohaga oid bilimlar darajasi)	5
4.	Sahna madaniyati	5
5.	Ijro uslubi va mahorati (she‘r, g‘azal, monolog, masal, hikoya)	20
6.	Ijro mahoratidagi ta’sirchanligi, tabiiyligi, o‘ziga xosligi	5
7.	Sezgi (ko‘rish, eshitish va idroklash) qobiliyati	5
8.	Abituriyentning sahnaviy tasavvuri – hayotiy (real) muhitda, turli sharoitlarda abituriyentning berilgan vaziyatda qahramon o‘rnida o‘zini ko‘ra bilish salohiyati	5
9.	Abituriyentning sahnaviy fantaziyasi – haqiqiy hayotda mavjud bo‘lmagan, ehtimoldan uzoq bo‘lgan (noreal) sharoitlarda o‘zini ko‘ra olish qobiliyati	5
10.	Abituriyentning plastikasi (nafis harakat, tana harakatlarining ifodaviy ta’sirchanligi, ma’nodorligi)	5
11.	Abituriyentning improvizatsiyaga moyilligi: etyud ijrosi	5

	(hayotdan olingan bir voqeani dialoglarsiz, predmetsiz, xatti-harakatda ijro eta olishi). Odob-axloqi, muomala va estetik didi	
12.	O'zbek raqs maktablarining harakatlaridan namunalar ijro etishi. Raqsda sahna madaniyati	10
13.	Ijro etilgan raqsning talab bo'yicha to'g'ri tanlanganligi. Ijro etilgan raqs mazmundorligi. Ijro etilgan raqs liboslar bilan ijro etilganligi. Musiqani eshitishi, ritmga tushishi. Abituriyentning plastikasi, mimikasi. Ijro mahorati nafisligi	10
Jami:		93

Sahna nutqi va raqs fanlari bo'yicha

№	Talabning mazmuni	Maksimal ball
1.	Talaffuzning tozaligi, ravonligi, burroligi, aniqligi (nutq a'zolaridagi organik va noorganik kamchiliklarning yo'qligi)	10
2.	Ovozning sog'lomligi va jarangdorligi	10
3.	Nutqiy ifodaviylik va ta'sirchanligi (nutqiy eshitish qobiliyatining mavjudligi)	8
4.	Badiiy so'z ijrochiligi mahorati (she'r, g'azal, masal, monolog va nasriy – hajviy asar)	8
5.	Badiiy va she'riy asarlardagi tasavvurning mavjudligi (mutolaa qilish savodxonligi)	10
6.	O'zbek raqs maktablarining harakatlaridan namunalar ijro etishi. Raqsda sahna madaniyati	4
7.	Ijro etilgan raqsning talab bo'yicha to'g'ri tanlanganligi. Ijro etilgan raqs mazmundorligi	4
8.	Ijro etilgan raqsning mos liboslar bilan ijro etilganligi. Musiqani eshitishi, ritmga tushishi	4
9.	Abituriyentning plastikasi, mimikasi. Ijro mahorati nafisligi	5
Jami:		63

Kasbiy (ijodiy) imtihonlarni o'tkazish tartibi

60211100-Aktyorlik san'ati (dramatik teatr va kino aktyorligi) yo'nalishiga hujjat topshirgan abituriyent jadval asosida belgilangan kunlarda aktyorlik mahorati, sahna nutqi va raqs fanlaridan yagona ijodiy imtihon oluvchi hay'at a'zolaridan iborat (barcha fanlardan bir komissiya a'zolari guruhi tuziladi, chunki "aktyorlik mahorati"ni o'ziga xos jihatlarini hisobga olgan holda aktyorlik mahorati o'qituvchisi bilan birgalikda abuturiyentning vokal va sahna nutqi bo'yicha qobiliyatlari tekshiriladi) guruhga ijodiy imtihonini topshiradi. Qabul komissiyasi tomonidan shakllantirilgan guruhlar 30 nafar abituriyentlar dan iborat bo'lib, ijodiy imtihon guruhlari bo'yicha o'tkaziladi. Kasbiy (ijodiy) imtihonlar maxsus qurollar bilan jihozlangan auditoriyalarda bo'lib o'tadi.

Kasbiy (ijodiy) imtihon raisi, kurs oluvchi pedagog, nutq, vokal hamda raqs mutaxassislarining tekshiruvi bilan o'tkaziladi. Sog'lom ovozning mavjudligi,

ijodiy salohiyatga egaligi, organik yetishmovchiliklarining yo‘qligi o‘rganiladi.

Apellyatsiya tartibi

Abituriyentlar tomonidan kasbiy (ijodiy) imtihon natijalari bo‘yicha institut qabul komissiyasining apellyatsiyalar bilan ishlash hay‘atiga natijalar e‘lon qilingan vaqtdan e‘tiboran 24 soat ichida murojaat qilishlari mumkin.

Murojaat faqat abituriyentning o‘z ballari yuzasidan bo‘lsa, qabul qilinadi, lekin boshqa abituriyentlar haqida yozilgan shikoyat arizalari qabul qilinmaydi.

Asosiy va qo‘shimcha o‘quv adabiyotlar hamda axborot manbaalari*

1. Abdullayeva. M. Dramatik teatr va kinoda aktyorlik mahorati. “Tafakkur qanoti” nashriyoti – T.: 2014.
2. Qobilov. N. Aktyorlik mahorati. “Navro‘z” nashriyoti – T.: 2020.
3. Tangriyeva. D., Mirzayev B. Aktyorlik mahorati. “Fan ziyosi” nashriyoti – T.: 2022.
4. Djon Benedikt. Aktyorning o‘z ustida ishlashi (K.S.Stanislavskiy). 2-qism. Routledge. 2008.
5. Lenard Petit. For the Actor (Aktyor texnikasi). Taylor & Francis, 2009.
6. Maxmudov. J., Maxmudova. X. Aktyorlik mahorati. “Lesson Press” nashriyoti – T.: 2016.
7. Stanislavskiy. K. S. Aktyorning o‘z ustida ishlashi. T.Xo‘jayev tarjimasi. – T.: (qayta nashr) Badiiy adabiyot, 2010.

Internet saytlari

1. www.ziyonet.uz
2. www.infocom.uz
3. www.uzreport.com